

AXSIKENT MUDOFAA TIZIMI

Tursunov Farrux Abdusalomovich

Namangan davlat universiteti arxeologiya

Magistratura 2 - bosqich talabasi

Annotatsiya. *Tarixiy yodgorliklarimizni o'rganish va muhofaza qilish milliy o'zligimizning ajralmas qismidir. Ushbu maqolada Axsikent yodgorligi majmuasining mudofaa tizimi haqida atroflicha bayon qilinadi.*

Kalit so'zlar: *yodgorlik merosi, mudofaa tizimi, shahar infratuzilmasi, qadimiy manbalar, taxiriy faktlar va h.k.*

O'rta Osiyo tarixida qadimiy davlatlardan biri Farg'ona (Davan) davlati haqida guvohlik beradigan Axsikent yodgorligidir. Ushbu qadimiy kentdan qolgan xarobalar buyuk tariximizdan so'zlaydi. Axsikent yodgorligi bugungi kunda Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi Shahand qishlog'i hududida, Sirdaryoning o'ng sohilida joylashgan. Axsikent eramizdan avvalgi III asrda tashkil topgan bo'lib, qadimgi Farg'ona davlatining poytaxti, Buyuk ipak yo'lining asosiy shaharlaridan biri bo'lgan. Tarixiy manbalarda, xususan, "Boburnoma"da bu kentning alohida ahamiyati haqida ko'p yozilgan. Qadimdan bu yerda yer osti suv inshooti bo'lgani bois mudofaa uchun qulay sanalgan. Shahar Ark, ichki va tashqi shahardan iborat bo'lgan.

Axsikent –buyuk tariximiz ko'zgusi. Bobolarimiz yashagan, qahramonlik ko'rsatgan bu manzilda tariximizni tiklash uchun juda katta manba, o'tmish dalillari bor. Biz shu paytgacha faqat mashhur shaharlarimiz tarixini o'rgandik, bunday joylarga e'tibor qilmadik. Ma'naviyatimizni yuksaltirmoqchi bo'lsak, yoshlarimizni ota-bobolarimizning asl merosidan bahramand etib ulg'aytirishimiz, xalqimizga yetkazishimiz kerak. Shavkat Mirziyoyev majmuada qadimiy tariximizni targ'ib qiluvchi festival o'tkazish, Namangan davlat universitetida arxeologiya ta'lim yo'nalishlarini ochish bo'yicha tavsiyalar berdi. Tarixni tarixiy obyektlarda o'qitish, maktab va universitetdagi amaliy mashg'ulotlar va darslarnig ayrimlarini shu yerda o'tish zarurligini ta'kidladi. amangan viloyati To'raqo'rg'on tumani hududidagi Axsikent tarixiy yodgorligiga oid ma'lumotlarda qayd etilishicha, bu yerda IX-XII asrlarda hunarmandchilik, xususan, kulolchilik va temirchilikning o'ziga xos maktabi yaratilgan. Tabiat manzaralari, ro'zg'or ashyolari va ajdodlarimiz qiyofasi akslangan nafis kulolchilik buyumlari ajdodlarimiz nihoyatda iqtidorli bo'lishganidan guvohlik beradiki, ularning ayrimlari Parijdagi mashhur Luvr



muzeyi, noyob shisha buyumlar esa Toshkent, Moskva, Sankt-Peterburg muzeylarining qimmatbaho eksponatlari qatoridan o'rin olgan. Farg'ona vodiysi xususan, Namangan viloyatida o'zining yuksak tarixiy qiymatiga ega bo'lgan ko'plab yodgorliklar mavjud. Bularning ichida Axsikent alohida o'rin tutadi. Qadimshunos olimlar tomonidan «Farg'ona Afrosiyobi», deya ta'rif berilgan Axsikent Farg'ona vodiysidagi eng yirik arxeologik yodgorlik hisoblanadi. Shavkat Mirziyoyev 2016 yilning 2 noyabrida Namangan viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutqida viloyatdagi arxeologik va me'moriy yodgorliklar haqida o'zlarining quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan edi: «...Bu diyordagi mashhur Axsikent, Munchoqtepa, Ayritom, Mug'tepa kabi me'moriy yodgorliklar o'tmishda ushbu hududda o'ziga xos sivilizatsiya va boy madaniyat rivojlanganidan dalolat beradi».Manzilgohni qazib o'rgangan qadimshunos olimlar manbalarga tayangan holda shaharning paydo bo'lishini taxminan miloddan avvalgi III asrlarga to'g'ri kelishi ma'lumotini berishgan.Axsikent - yozma manbalarining guvohlik berishicha, Farg'ona vodiysidagi eng qadimgi poytaxt va shahar hisoblanadi. Shahar o'rta asrlarda o'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutib, juda ko'p saltanatlar uchun poytaxt vazifasini o'tagan. 1621 yilgi kuchli zilzila oqibatida esa vayron bo'lgan va qayta tiklanmagan. Ayni paytda Axsikent yurtimizdan yetishib chiqqan ko'plab allomalarning kindik qoni to'kilgan zamin hamdir. Xususan, Abul Qosim Mahmud ibn Muhammad as-So'fiy Axsikatiy, «Zul Fazoil» («Fazilatlar sohibi») laqabi bilan shuhrat qozongan Abu Rashod Axsikatiy, «Zul Manoqib» («Maqtovgaga sazovor xislatlar egasi») laqabini olgan Abul Vafo Muhammad ibn al-Qosim al-Axsikatiy, «Maliki shuaro» («Shoirlar podshosi») va «Amiri shuaro» («Shoirlar amiri») darajasiga erishgan Abdul Fazl Muhammad Tohir Asiriddin Axsikatiy, Tojuddin Abu Bakr bin Ahmad al-Axsikatiy al-Xo'jandiy, Sayfiddin Axsikatiy, Mavlono Poyanda Oxun Axsikatiy, Muhammad Yusuf ibn Imomuddin Axsikatiy, Ibrohim ibn Yusuf bin Imomuddin Axsikatiy diniy va dunyoviy ilmlar sohasida shuhrat qozonganlar.2017 yil 16 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanida «Axsikent» arxeologiya merosi obektini muhofaza qilish va tadqiq etish yodgorlik majmuasini tashkil etish to'g'risida» 831-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida majmuani saqlash, uning ish faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida viloyat hokimligi muassisligida davlat unitar korxonasi shaklidagi «Axsikent» arxeologiya merosi obektini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi tashkil etildi. O'tgan bir yil davomida direksiya tomonidan 3ta yirik anjuman tashkil etildi, kitoblar nashr etildi. Shaharning haqqoniy tarixini yaratish, uni xalqaro turizm go'shasiga aylantirish borasida talay ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda.



Axsikentni XIX asr oxiri XX asr boshlarida o'rgangan rus sharqshunos va arxeolog olimlaridan, akademiklar A.Middendorf va V.V.Bartold, professorlardan N.I.Veselovskiy hamda A.N.Bernshtam, tadqiqotchi-sharqshunoslar I.A.Kastane, V.Nalivkin, N.P.Ostroumov, N.Pavlov va boshqalar Axi, Axsikat yoki Axsikent, deganda faqatgina bitta makon — Sirdaryoning o'ng qirg'og'idagi joylashgan Eski Axi yodgorligini nazarda tutishgan. Aytish joizki, mo'g'ullar tomonidan Farg'ona vodiysi qanday bosib olingani haqidagi ma'lumotlar manbalarda kam yoritilgan. Shunga qaramasdan, so'nggi paytlarda shaharlar tarixiga oid chop etilgan deyarli barcha asarlarda vodiy shaharlari ham yurtimizning boshqa hududlarida bo'lgani kabi, 1220-1221 yillardagi mo'g'ullar istilosi davrida butunlay vayron etilgani ta'kidlanib yozildi. Shuningdek, aksariyat olimlar Axsikent haqida ham shahar mo'g'ullar davrida vayron etilgach, temuriy Umar Shayx Mirzo davriga kelib aholi undan 5-6 kilometr g'arbroqda yangi Axi shahriga asos solganini qayd etishgan. Temuriylar davri Axsikenti yoki Umar Shayx Mirzo davlatining poytaxti Axi bu — hozirgi Axi qishlog'i o'rnida bo'lganini e'tirof etishdi. Xo'sh, buning uchun tarixiy manbaviy asos bormi? Umuman, bu xulosani olimlarimiz qayerdan olmoqdalar? Biz o'rgangan ma'lumotlarga ko'ra, Axi, Axsikat va Axsikent bu bitta makon. XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib Axsikent tadqiqoti bilan shug'ullangan yevropalik sharqshunos va arxeolog olimlar Axsikent yoki Axi, deganda faqatgina bitta obektni nazarda tutishgan. U ham bo'lsa, bugungi Shahand-Jomasho'y yo'li yoqasida, Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan Eski Axi arxeologik yodgorligidir. XX asrning 60-yillarigacha bo'lgan tarixiy tadqiqotlar tahliliga nazar solinganda, Axi qishlog'i o'rnida temuriylar shahar barpo etganligi masalasi o'rta tashlangan biron bir asar uchramadi. Axsikentda 1960 yilning 14 mayidan 20 iyunigacha ish olib borgan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining maxsus arxeologlar otryadining ilmiy rahbari professor Ya.G'ulomov bo'lib, a'zolari I.Ahrorov va S.Rahimov edi. Ushbu ekspeditsiya faoliyati natijalari to'g'risidagi xulosalarni I.Ahrorov «O'zbekistonda ijtimoiy fanlar» jurnalidagi maqolasida bayon etgan. Unga ko'ra, Eski Axi yodgorligi XVII asrdagi zilzila oqibatida vayronaga aylangan. Shuningdek, muallif Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma» asarida ko'rsatib o'tgan Axi qal'asi aynan bugungi kundagi Eski Axi arxeologik yodgorligi ekanligini ham yozgan edi.

Prezidentimiz topshirig'iga muvofiq 2017 yilda Axsikent tarixiy yodgorligini asrab-avaylash va tadqiq etish, uning haqqoniy tarixini yaratish bo'yicha ulkan ishlar boshlandi. "Axsikent" arxeologiya merosi obyektini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi» davlat unitar korxonasi tashkil etildi. Mazkur yodgorlik Namangan viloyatining sayyohlik salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Yurtimiz va



xorijdagi sayyohlik ko'rgazmalarida qadimiy Axsikent haqida ham taqdimotlar o'tkazilmoqda. Buning samarasida mahalliy va xorijiy sayyohlar o'rtasida tarixiy yodgorlikka qiziqish ortmoqda. Hozirga qadar Belgiya, Avstriya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya, Eron, Pokiston, Hindiston kabi davlatlardan sayyohlar tashrif buyurgan. Qadamjoni tadqiq etish, uning jozibadorligini va sayyohlar oqimini oshirish maqsadida maxsus konsepsiya ishlab chiqilgan. Ayni kunda shu asosda Farg'ona vodiysida ichki turizmni rivojlantirish choralari ko'rilmogda. Prezidentimizga Axsikent majmua bosh rejasi, uning tadqiqot olib borilgan obyektlari, hududda barpo etiladigan turistik majmua loyihasi haqida ma'lumot berildi. Unga ko'ra, bu yerda muzey tashkil etiladi. Axsikentning qadimiy dovrug'ini tiklash maqsadida ramziy darvoza quriladi. Umarshayx Mirzo va Boburning Kamoliddin Behzod chizgan suratlari asosida ularning haykali bunyod etiladi. Sayyohlar uchun Sirdaryo bo'ylab qayiqlarda sayr qilish, tuyada ko'hna shaharni tomosha qilish imkoniyati yaratiladi. Bir so'z bilan aytganda, zarur infratuzilma, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari qurilib, Axsikent turizm manziliga aylantiriladi. Davlatimiz rahbari Axsikent tarixini ilmiy asoslangan holda chuqur o'rganish, ajdodlarimizning asl o'tmishi haqida ma'lumotlarni to'plash va yosh avlodga singdirish bo'yicha tizimli ishlarni olib borish kerakligini ta'kidladi. "Axsikent – buyuk tariximiz ko'zgusi. Bobolarimiz yashagan, qahramonlik ko'rsatgan bu manzilda tariximizni tiklash uchun juda katta manba, o'tmish dalillari bor. Biz shu paytgacha faqat mashhur shaharlarimiz tarixini o'rgandik, bunday joylarga e'tibor qilmadik. Ma'naviyatimizni yuksaltirmoqchi bo'lsak, yoshlarimizni ota-bobolarimizning asl merosidan bahramand etib ulg'aytirishimiz, xalqimizga yetkazishimiz kerak".

Farg'ona vodiysidagi qadimiy shaharlarning har biri o'ziga xos tarixga ega. Bu borada Farg'onaning qadimiy poytaxti – Axsikent shahri e'tiborga molikdir. Uning xarobalari hozir To'raqo'rg'on va Jomashuyidan o'tuvchi Namangan-Farg'ona yo'lining ikki tomonida Sirdaryoning o'ng qirg'og'i bo'ylab cho'zilgan baland adirlar ko'rinishida joylashgan. Odamlar uni qari Axi deb ataydilar. Ushbu manzilgohning vayronaga aylangan qatlamlarida 2,2 ming yilga yaqin vaqt mobaynida rivojlangan tarixiy obidalar yashiringan bo'lib, ular Farg'ona xalqlari hayoti va madaniyati haqida bebaho ma'lumotlar beradi. Bular tarixning qadimiy sahifalari va o'zbek xalqining boy madaniy merosi, moddiy madaniyatning o'chmas izlari va o'z davri jozibadorligi mezonidir. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Shahrison hududidan temir va mis eritilgan maxsus kulolchilik buyumlari, hunarmandchilik ustaxonalaridan metall pechlar topilgan. Axsikent ustaxonalarida qurilish va uy-ro'zg'orchilikda ishlatiladigan eng oddiy metallardan tortib, tosh kesadigan, egilganda sinmaydigan qilich va xanjargacha bo'lgan turli buyumlar yasalgan. 2001-yilda hunarmandlar



mahallasidan (kvartal) ana shunday qimmatbaho qurol turlaridan birining zarhal dastasining kichik bo'lagi topilgan. Bir necha arxeologik olimlarning fikricha, Axsikent posyolkasi hududida muzey tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Muzey loyihasini amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- Birinchidan, Axsikentning qadimiy va o'rta asrlardagi qiyofasini tiklash (Axsikent landshaftlarini aks ettiruvchi chizma va relyeflar) zarur.

- Ikkinchidan, Axsikentning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy holatini (yozuv, tibbiy maqolalar, tangalar) aks ettirish kerak.


- Uchinchidan, hunarmandlar tomonidan yaratilgan badiiy hunarmandchilikni (kulolchilik, shisha idishlar, zargarlik buyumlari) ommalashtirish.

- To'rtinchidan, harbiy san'atga oid buyumlarni (jangchilar quroli, o'q, kamon) nashr etish.

- Beshinchidan, arxitektura inshootlarini (arxitektura bezaklarining parchalari, poydevorlar, tosh buyumlar, sopol quvurlar, devor rasmlari) taqdim etish.

Qadimgi Axsi xarobalaridan topilgan moddiy-madaniy ashyolar o'ziga xos rang-barangligi, nafisligi bilan ajralib turadi. Axsikentdan topilgan moddiy madaniyat namunalari Parijdagi Davlat Luvr muzeyida saqlanadi. A.I. kolleksiyasidan Axsikent bronza buyumlari xazinasi. Smirnov Moskvadagi Sharq xalqlari tarixi davlat muzeyida saqlanadi. Tabiiy-iqlim sharoitlari, vaqt va inson faoliyati (asrlar davomida zilzilalar ta'sirida bo'lgan harorat va havo namligining o'zgarishi) ta'siri natijasida moddiy eskirish, yodgorliklarning o'zgarishi va eskirishi sodir bo'ldi va bugungi kunda ularning vazifalari saqlash katta ahamiyatga ega. Konservatsiya va ta'mirlash ishlarini tashkil etish va amalga oshirish imkoniyati cheklangan. Ham moliyaviy, ham texnik jihatdan qiyin hisoblangan bu amaliyot, shuningdek, yodgorliklar holatini ilmiy asoslangan usullardan foydalangan holda muntazam nazorat qilish katta moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. Farg'ona vodiysidagi ayrim arxeologik yodgorliklar asta-sekin vayron bo'lib, yo'q bo'lib ketmoqda. Buning sabablari, asosan, loy va xom g'ishtdan iborat bo'lgan ob-havoga chidamli qurilish material, shuningdek, qazishdan keyin ularni saqlab qolish uchun hech qanday chora-tadbirlarning yo'qligi. Bunday noxush holatga yo'l qo'ymaslik uchun arxeologik tadqiqotlarga ochiq sirtni kimyoviy saqlash xarajatlari smetasini kiritish kerak. 2019-yil sentabr oyida Axsikent hududida olib borilgan arxeologik qazishmalar chog'ida qoraxoniylar davri qatlamlaridan devor rasmlari qoldiqlari va ganchdan o'ymakor naqsh parchalari topildi. Bu kashfiyot Farg'ona vodiysi tarixiga oid ko'p yillar davomida bahs-munozaralarga sabab bo'lgan qator savollarga javob berdi. Bu topilma Farg'ona vodiysida devor bo'yash an'anasi rivojlanganligini ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, Axsikent yodgorligini tegishli tarixchilar, sharqshunoslar, kimyogarlar,





tilshunoslar, numizmatlar, muzeyshunoslar, ayniqsa, konservativ restavratlarni jalb etish orqali ko'p tomonlama, chuqur va har tomonlama o'rganishni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Axsikentni ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirish, bu hududni xalqaro sayyohlik maskanlariga aylantirish, sayyohlar uchun barcha qulayliklarga ega zamonaviy dam olish majmuasini qayta tiklash bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullaev N.U. "San'at tarixi" T-1. Toshkent, "Ukituvchi", 1987 yil
2. Oydinov N. "O'zbekiston tasviri sanati tarixidan lavkhdlar", Toshkent. Ukituvchi 1997 yil.
3. N. Oydinov. Azhdodlarimiz sanati va etikodi. Toshkent. "Ukituvchi" 1992 yil.
4. Dmitrieva I.A. "San'atning qisqacha tarixi". Insholar jild. 1.1.M. 1968-1975 yillar.
5. Oidinov N. Rassom ukdtuvchilar tayorlash muammolari. - Toshkent: Utsituvchi -ziyo-noshir, 1997. -214 b.
6. Oripov B. Tasvirii sanat asoslari. -Namangan, 1994. -B. 56 b.
7. Oripova B. Sanat Nazariyasi. -Namangan, 2000. -22 b.

